

## TIBBIY BIOLOGIYA VA GENETIKA FANINI O'QITISHDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

*G'aniyev K.X., Zokirova G.M., Aliyev Z.Z.  
Central Asian Medical University*

**Kirish.** Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi ta'lim tizimi sifatini yuqori saviyaga olib chiqishni talab etmoqda. Uzlüksiz ta'lim tizimida ta'lim beruvchi shaxs faqatgina o'qituvchi emas, balki ta'limda va boshqaruvda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali tashkil etuvchisi bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida axborot hajmining keskin kengayib borayotganligi talabalar uchun ham, pedagoglar uchun ham fanni o'rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi. Tibbiyot oliygohlarida "Tibbiy biologiya va genetika" fanining o'qitilish jarayonida turli-tuman pedagogik texnologiyalardan foydalanib, samarali natijaga erishish uchun pedagog o'zining faoliyatini oldindan loyihalashtirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bo'lajak shifokorlarga "Tibbiy biologiya va genetika" fanini o'qitishda foydalaniladigan texnologiyalar xilma-xillikni talab etadi. Ta'limda virtual texnologiyalar, o'quv-biluv faoliyatini shakllantirishga qaratilgan texnologiyalar, multimediali texnologiyalar, talabalar bilimini nazorat qiluvchi texnologiyalar, loyihaviy o'qitish texnologiyalari shular jumlasidandir.

Oliygo'ha talabalariga ushbu fanning chuqur o'rgatish bilan birgalikda ular orasida ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi kunda juda muhim va ahamiyatli, chunki ular orqali biz butun jamiyatni ekologik tarbiyalashga erishamiz.

Ekologik madaniyatni insoniyatga singdirish muammosi global ekologik inqirozga yaqinlashib qolganligi sababli keskinlashib bormoqda.

Atrof-muhitning barqaror sifati, ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan yoshlarni tarbiyalash bugunning dolzarb muammolaridan biridir.

Ekologik ta'lim - bu shaxsga maqsadli ta'sir qilish jarayoni bo'lib, uning davomida atrof-muhitni boshqarishning ilmiy asoslari to'g'risidagi bilimlar, ma'lum ekologik madaniyat, tabiiy muhitda zaruriy e'tiqod va xulq-atvor ko'nikmalari, unga nisbatan mas'uliyatli munosabat shakllanadi. Aslida, bu talabalarda ekologik fikrlash uslubini, tabiatga insoniy munosabatni, oqilona ekologik faoliyat tamoyillarini o'rnatish uchun kurashda faol hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik jarayondir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Oliy o'quv yurtlarida o'qish davrida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Mutaxassis faoliyat turini tanlamasin u ekologik axloq va ekologik madaniyatga ega bo'lishi kerak.

Tibbiy biologiya va genetika fanini o'qitish jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish - talabalarining fikrlashi, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarida shaxsiy, axloqiy munosabatlar, qadriyat, odatlarni shakllantirishning murakkab, har tomonlama, uzoq muddatli jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Talabalarga mashg'ulotlarda fanning nazariy va amaliy qismlarini o'qitish jarayonida talabalariga ekologik madaniyatni shakllantirish quyidagi printsiplarga asoslanishi maqsadga muvofiq. Ekologik ta'lim-tarbiya berishda nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish, mamlakatning ekologik siyosatining ajralmas qismi sifatida ekologik madaniyat muammolarini hal qilishga yondashish, hududiy xususiyatlarni, jumladan, tabiiy sharoit va resurslarni, ekologik va demografik vaziyatni, aholining madaniy, tarixiy va diniy an'analarini, shuningdek, turmush darajasi, intellektual va ma'naviy salohiyatini hisobga olgan holda, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik kafolatlarini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy qoidalariga amal qilish singari amaliy jihatlarni ham hisobga olish darkor. Tibbiy biologiya va genetika fani amaliy mashg'ulotlarida talabalarga darsning dastlabki bosqichida ma'naviyat daqiqalarini tashkillash muhim ahamiyatga ega. Ma'naviyat daqiqalarida talabalarga tabiatga mehr-muhabbat, ekologik qonunlarga rioya qilish va uni buzganlik uchun

javobgarlikning muqarrarligini xis qilishi haqida maqolalar, kichik video lavhalar va animatsion filmlar taqdim etiladi.

Ushbu tamoyillarni amalga oshirishda o'quv jarayoni bilan birgalikda, dars mashg'ulotlaridan tashqari iqtidorli talabalarga mustaqil ishlari va ilmiy-tadqiqot faoliyatlarida ham turli topshiriqlar berish ekologik madaniyatni targ'ib qilishni samarali usullaridan biri. Ekologik madaniyat haqidagi bilim va ko'nikmalar nafaqat dars mashg'ulotlarida balki, talabaning darsdan tashqari faoliyatida guruh kuratorlari va tyutorlari bilan ma'naviy-marifiy kechalar doirasida ham amalga oshirilishi kerak.

**Olingan natijalar va muhokamalar.** Quyida talabalar o'rtasida ekologik madaniyatning shakllantirishning asosiy vositalarini haqida tavsiyalar taklif etilmoqda:

- ishlab chiqarish, dala va ijtimoiy-siyosiy amaliyot, ekologik talabalar jamoalarini tashkil etish orqali talabalarni aniq ekologik faoliyat bilan tanishtirish;
- atrof-muhitni oqilona boshqarish va ekologik ta'lim muammolarini hal qilish uchun ijodiy talabalar jamoalarini yaratish amaliyotini kengaytirish;
- sog'lomlashtirish oromgohlarida va boshqa o'quv jarayonidan tashqari shakllarda hududning ekologik holatini o'rganish, uni barqarorlashtirish va yaxshilash bo'yicha yechimlarni izlash va amalga oshirish uchun maxsus ekologik amaliyotni o'tkazish;
- talabalarga yashash joyida ekologik tadbirlarni tashkil etishda yordam berish;
- ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha kafedra rejalarga ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid mavzularni kiritish va bu ishlarni bajarishga talabalarni jalb qilish;
- o'quv jarayoniga o'quvchilarning uzluksiz ekologik tayyorgarligi bo'yicha kompleks rejalarni joriy etish;
- o'lkashunoslik muzeyi, hayvonot bog'lari, tabiiy yodgorliklar va muhofazaga olingan hududlarga tashrif buyurish.

Talabalarining ekologik madaniyatini oshirishning qo'shimcha pedagogik sharti, universitet muhitida ekologik ta'lim muhitini yaratish hisoblanadi. Bunday muhit talabalar tomonidan tashkillanishi, ularni ekologik bunyodkorlikka o'rgatadi.

**Xulosa.** Talabalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda avvalambor, oliy ta'lim professor-o'qituvchilari targ'ibotchi bo'lishlari shart. Buning uchun barcha ta'lim dargohi o'qituvchilari uchun ekologik madaniyat muhim malaka mezoniga aylanishi kerak.

Talabalarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari, badiiy adabiyot, kino, teatrlar, muzeylar, qo'riqxonalar, hayvonot bog'larining o'rni beqiyos.

Shunday qilib, bo'lajak mutaxassisning ekologik faol shaxsini shakllantirish uchun universitet ta'limining bilimlarning fanlararo hamkorligiga va bitiruvchilarning ekologik tayyorgarligi sifatini oshirishga yo'naltirilganligini yanada faol rivojlantirish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Бирюкова Н.А. - Проблемы формирования экологического сознания / Н.А. Бирюкова // Педагогика. - 2004. - № 10. - С. 35-41.
2. Бодиева Н.Ф, Бодиев А.Б. Экологическая культура личности как основа практической природосберегающей деятельности современного общества. Энергосберегающие и природоохранные технологии (встреча на Байкале): Материалы II межд. науч. - практ. конф., 20 -25 августа 2003 г./ Изд-во Восточно-Сибирского государственного технологического университета. - Улан-Удэ, 2003.
3. Васильева О.В., Рыжаева В.Н., Солодилова М.А. Воспитание экологической культуры у студентов в медицинском вузе. // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. -2016. –с.140.
4. Васильева О.В., Иванов В.П., Рыжаева В.Н., Солодилова М.А - Сочетание использования информационных и традиционных технологий при преподавании экологии в медицинском вузе // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. - 2015 г. - №4 (75), Ч III. - С. 56 - 59.